

**O‘QUVCHILARDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING  
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK USULLARI**

*Raximova Nilufar Abduqayumovna*

*Sirdaryo tumani 33- maktab amaliyotchi psixologi*

*Yalgasheva Shohista Shernazar qizi*

*Sirdaryo tumani 35-maktab amaliyotchi psixologi*

*Hakimova Nargiza Xudoynazarova*

*Sirdaryo tumani 14-maktab amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada o‘quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari, liderlik qobiliyatining rivojlanish bosqichlari hamda ushbu jarayonda qo‘llaniladigan zamonaviy usullar yoritilgan. Shuningdek, oila, maktab va psixologik muhitning o‘quvchi shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:**Liderlik, o‘quvchi shaxsi, psixologik rivojlanish, motivatsiya, tashkilotchilik, muloqot, jamoaviy faoliyat, pedagogik yondashuv, o‘ziga ishonch, ijtimoiy faollik.

**KIRISH**

Bugungi kunda ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri — tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan va jamiyatda faol ishtirok eta oladigan yoshlarni tarbiyalashdir. Shu sababli o‘quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.Liderlik — bu insonning boshqalarni maqsad sari yo‘naltira olish, jamoani boshqarish va muayyan vaziyatlarda tashabbus ko‘rsatish qobiliyatidir. Liderlik sifati tug‘ma bo‘lishi bilan birga, tarbiya va ijtimoiy muhit ta’sirida ham rivojlanadi.O‘quvchilarda liderlik sifatlarining shakllanishida o‘ziga ishonch muhim ahamiyatga ega. O‘ziga ishongan o‘quvchi tengdoshlari bilan erkin muloqot qiladi, fikrini ochiq bayon etadi va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan cho‘chimaydi.Lev Vygotsky nazariyasiga ko‘ra, bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va hamkorlik faoliyati orqali amalga oshadi. Shu sababli jamoaviy faoliyat o‘quvchilarda liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik usullar orasida interfaol metodlar alohida o‘rin tutadi. Guruhli ishlash, munozaralar, rolli o‘yinlar, loyiha faoliyatlari va muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning tashabbuskorligini hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.Liderlik sifatlarini rivojlantirishda kommunikativ ko‘nikmalar ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni erkin fikr bildirishga, boshqalarni tinglashga va

jamo'a bilan hamkorlik qilishga o'rgatish zarur. Maktab amaliyotchi psixologi tomonidan tashkil etiladigan trening mashg'ulotlari va psixologik o'yinlar o'quvchilarda liderlik, mas'uliyat va emotsional barqarorlik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, tortinchoq va passiv o'quvchilar bilan individual ishlash muhim hisoblanadi. Abraham Maslow insonning o'z imkoniyatlarini namoyon etishga intilishi tabiiy ehtiyoj ekanligini ta'kidlagan. Shu sababli o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish liderlik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oila muhitining ham liderlik sifatlarini shakllantirishdagi o'rni katta. Ota-onalarning bolani qo'llab-quvvatlashi, mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratishi va uning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni turli tadbirlar, musobaqalar va jamoaviy loyihalarga jalb qilish ularning tashkilotchilik hamda liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni liderlik sifatlarini rivojlantirishda zamonaviy ta'limning ahamiyati juda katta. Liderlik o'zi nima? Liderlik - avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir. Shu o'rinda zamonaviy liderlik modelini ko'rib chiqamiz. (aslida yetakchilik-liderlikning ko'plab tushunchalari va modellari mavjud)

Liderlik qobiliyatlari - bu boshqalarni ilhomlantirish, ularni maqsadga yo'naltirish va natijalarga erishish uchun jamoani birlashtirish qobiliyatidir. Bu qobiliyat tug'ma emas, balki rivojlanadigan xususiyatdir.

Liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quidagilar alohida ahamiyatga ega:

- O'zini o'zi anglash:
- Kuchli va zaif tomonlarni aniqlash: O'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash insonga o'zining qobiliyatlarini yaxshiroq tushunishga va ularni rivojlantirishga yordam beradi.
- Qadriyatlarni belgilash: Hayotdagi qadriyatlarini aniqlash insonga o'zining qanday lider bo'lishni xohlayotganini tushunishga yordam beradi.
- O'ziga bo'lgan ishonchni oshirish: O'ziga bo'lgan ishonch muvaffaqiyatlar uchun muhim omildir. O'ziga bo'lgan ishonchni oshirish uchun o'zini qadrlashni o'rganish, o'zining yutuqlarini tan olish va o'ziga bo'lgan ijobiy fikrlarni shakllantirish. Liderlikni shakllantirish uchun motivatsiyaning ham roli juda muhim. Motivatsiya inson hayotida va ta'lim tizimida juda katta ahamiyatga ega. Shaxs yaxshi lider bo'lishi uchun yoshlarni qaysi vaziyatda qanday motivatsiya berish kerakligini bilishi kerak. Zamonaviy ta'limda motivatsiyaning vazifasi yoshlarning salohiyatidan eng samarali foydalaniladigan sharoitlarni yaratishdir. Motivatsiya modellarini o'rganish natijalari yoshlarni liderlikga undovchi sifatlarini aniqlashga imkon beradi. Ta'lim jarayonida ichki motivatsiyadan tashqari tashqi motivatsiyaning ham alohida o'rni bor.

Stipek tomonidan olib borilgan tadqiqot ham shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiyaga ega bo'lgan talaba (yoki o'quvchi) yoshlar mustaqil ravishda o'rganishadi va har doim qiyin vazifalarni bajarishni qo'rqmasdan tanlashadi. Ular o'z zimmlariga olgan vazifalarni qat'iyat bilan bajara olishadi. Ular ta'lim dargohida olgan bilim va ko'nikmalarini maktabdan tashqarida olgan tajribalari bilan birlashtira oladilar. Biroq, ichki motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan harakatlar xulq-atvorga ta'sir qilish imkoni sekin bo'lishi va maxsus hamda uzoq tayyorgarlikni talab qilishi mumkin.

Bu yerda rag'batlantirish shaxsdan tashqarida bo'lib, u operativ shartlash yoki ijtimoiy bilish shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Bu natijaga erishish uchun vazifani bajarishni anglatadi. Bu qandaydir mukofot, ijtimoiy ma'qullash yoki minnatdorchilik shaklida bo'lishi ham mumkin. Tadqiqotchi Xarmerning ta'kidlashicha, tashqi motivatsiya har qanday tashqi omillardan kelib chiqishi mumkin. Ular orasida moliyaviy mukofot umidi ham, imtihondan o'tish kerak yoki kelajakdagi qulay bir imkoniyat ham bo'lishi mumkin. Umuman olganda, motivatsiya ma'lum bir javob natijasida yuzaga keladigan tashqi stimul sanaladi. Demak, tashqi motivatsiya o'quvchidan tashqarida kelib chiqadigan va uni o'quv jarayoniga undaydigan har qanday stimul hisoblanadi. Rayan va Desi kabi olimlarning fikricha, o'quvchilar o'rganishning o'zidan boshqa natijalarni kutish bilan harakatni bajarishga tashqaridan harakat qilishadi. Shuningdek, boshqa tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tashqi motivatsiya talabalarni tashqi sabablarga ko'ra akademik vazifalarni bajarishga undaydi. Benabou va Tirol kabilarning fikriga ko'ra esa, tashqi motivatsiya kerakli xatti-harakat uchun ijobiy mustahkamlovchi bo'lib xizmat qiladigan mukofotlar bilan mehnat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy yoshlarni bilimli va malakali lider etib tarbiyalash, ularni jahon talablari darajasiga mos mutaxassislar etib tayyorlash maqsadida ta'lim tizimi nafaqat son, balki sifat jihatidan ham izchil rivojlantirilmogda. Zamonaviy ta'lim yoshlarni XXI asrning talablariga mos, raqobatbardosh va samarali liderlarga aylantirishga yordam beradi. Quyida zamonaviy ta'limning liderlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini batafsilroq ko'rib chiqamiz. Liderlik ta'limning muhim qismi liderlik ta'limda muhim rol o'ynaydi. Liderlik ta'limning samaradorligini oshiradi, liderlik ta'limning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

1. Yoshlarni liderlikka tayyorlashda ularning fikrlarini qabul qilish va jamiyat kamchiliklarini bartaraf etishga qiziqtirish muhim.
2. Yoshlarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga ta'lim va treninglar berish kerak.
3. Yoshlarni liderlikka tayyorlashda ularni jamiyat va siyosiy hayotga jalb qilish kerak.

4. Yoshlarni liderlikka tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak.

Yoshlarning har bir kichik yutuqlarini tan olish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni keyingi muvaffaqiyatlarga intilishga undaydi. So'ngi yillarda dunyoning ko'plab davlatlari qatori O'zbekistonda ham yoshlarni yetakchilik mahoratini oshirish bo'yicha qator chora tadbirlar ko'rilmogda. Yoshlarni yetakchiligini rivojlantirishda maktab, kollej, va boshqa talim muassasalarning roli muhimdir. Judda ko'p yoshlarimiz o'z fikrlarini qat'iy bildirishda irodasizlik qilishadi. O'zlariga bo'lgan ijobiy fikrlarni shakllantirishga yordam berish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va ularni muvaffaqiyatga erishishga undaydi. Yoshlarning orzularini aniqlash ularni maqsadlar qo'yishga va o'z maqsadlariga erishishga o'rgatadi.

Zamonaviy ta'lim va motivatsiya yoshlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ularga bilimlarni olish imkoniyatlarini kengaytiradi, kritik fikrlash lider va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, jamoaviy ish va muloqot ko'nikmalarini oshiradi, texnologiyalarni ishlatish qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'zini o'zi boshqarish liderlik qobiliyatlarini oshiradi, doimiy o'rganishga tayyorlaydi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Zamonaviy ta'lim yoshlarni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlaydi va ularni jamiyatning faol a'zolari bo'lishga undaydi. Liderning intellektual qobiliyati, yetakchilik faoliyati, qobiliyati va shaxsiy fazilatlarini o'quvchilarning bilim olish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirish ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy psixologik-pedagogik usullar, sog'lom psixologik muhit va individual yondashuv orqali o'quvchilarda tashabbuskorlik, mas'uliyat va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Sharq, 2020.
2. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat asoslari. — Toshkent, 2021.
3. Lev Vygotskyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi.
4. Abraham Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi.
5. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. — Toshkent, 2019.
6. Abdullaeva R. Liderlik va rahbarlik sifatlarining bog'liqlik jihatlari G'G' Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi maqolalar to'plami. 2019 yil 20 noyabr.- B. 255-256
7. Otabek Xasanov nutqi. <https://t.me/liderlar1>
8. Razzoqov. Shavkat. Rahbarlik san'ati.- Tashkent: Lesson press, 2017. 120b

9. Jon.K.Maksvel. Liderlikning 21 muqarrar qonuni: tarjima. - Toshkent: "Info Capital Group", 2018. - 304 b.
10. Баклицкий И. О. Психологические особенности учебной мотивации студентов. / И.
11. Бахтина И. А. Мотивация учебной деятельности студентов ССУЗ: дис. ... канд.
12. психол. наук: спец.19.00.05. / Ирина Анатольевна Бахтина. - Казань, Ин-т среднего специального образования РАО, 1997. - 180